

Xilola Ne'matullayeva,
ToshDSHI Mumtoz filologiya
kafedrası magistranti

“QUTADG’U BILIG”DA KELGAN TAVG’ACH BUG’ROXONGA BAG’ISHLANGAN QASIDA

Qasida arabcha “qasd” so’zidan olingan bo’lib, maqsad, niyat, biror joy, narsa yo maqsadga qasd qilish degan ma’noni anglatadi. Adabiy termin sifatida esa lirik turga mansub she’riy janrlardan birini bildiradi. 15-20 baytdan 100 va undan ham ortiqroq baytga ega bo’lishi mumkin. U tematik jihatidan ham g’oyat keng qamrovga ega.

Mahmud Koshg’ariy “qo’shuq” termini haqida so’z yuritib, uni “she’r”, “qasida”, “qo’shiq” deb izohlaydi¹.

“Qutadg’u bilig” turkiy tildagi poetik janrlarning shakllanishi va evolyutsiyasini kuzatish uchun muhim manbadir. Turkiy tildagi she’riy shakllar, ularning o’zaro munosabati, oldingi davrlar, shuningdek, qo’shni xalqlar adabiyoti bilan aloqasi XI asr adabiy etiketiga munosabati kabi masalalarni “Qutadg’u bilig” orqali yoritmoq mumkin. “Qutadg’u bilig”dagi she’riy shakllar haqida adabiyotshunos olimlar turlicha fikrlar bildirganlar. Rus olimasi I. V. Stebleva shunday deydi:

Doston turkiy tildagi klassik adabiyot tarixida birinchi marta turkiy tilli poeziyaning keying taraqqiyotida mustaqillik kasb etgan bir qator arab va fors poeziyasi janrlarini mujassamlashtirgan².

Adabiyotshunos B. To’xliyevning ta’kidlashicha asarda to’rtta qasida mavjud³ bo’lib, shulardan biri Tavg’ach Bug’roxonga bag’ishlangan qasidadir.

¹ Mahmud Koshg’ariy. Devoni lug’otit turk. I tom. – T., 357 bet.

² Стеблева И.В. Поэтика «Кутадгу билиг» // Советская тюркология. - № 2. – М., 1974. – С. 100.

³ To’xliyev B. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”i va ayrim janrlar takomili. – T., 2004. – B. 25.

Masnaviy tarzda yozilgan bu parchada faqat qofiyalanish usullarigina (a-a, b-b, v-v...) qasidadan farq qiladi xolos. Boshqa tomonlari, mavzu jihatdan ham qasida janri talablariga javob beradi. Shuning uchun ham mazkur parchani qasida deb atay olamiz. Unda an'anaviy na'sib ham bor. 58 baytdan iborat bu qasida quyidagicha boshlanadi:

Tuğardīn esä keldi oñdun yeli

Ajun etkügä ačtī ujmah, yoli

Sharqdan avval bahor nasimi esib keldi,

Olamni bezash uchun jannat yo'lini ochti⁴.

Qasidaning qofiyalanish tizimi hozirda biz qabul qilgan qasida janri qofiyalanish tizimiga muvofiq kelmasada, mohiyatan qasida janri talablariga to'la javob beradi. Qasida dastlab bahor tasviri bilan boshlanadi. So'ng, asosiy qismga – Bug'roxon madhiga o'tiladi. Qasidada shoir ushbu qasida shohga tuhfa ekanligini eslatib o'tadi. Qasida so'ngida esa xonga bag'ishlangan ezgu tilak va duolar izhor qilingan

Shoir turli badiiy-tasvir vositalari orqali qasidaning badiiyatini bezagan. Masalan, shoir qasidaning so'nggi baytida xonga uzun umr tilab, shunday deydi:

Sevinčīn avīnčīn quvančīn eli,

Ašasu yašasunī Luqman yilī

Sevinch, ovinch, quvonch bilan eli,

Luqmon yoshin yashasin va oshasin(55).

Shoir xonga uzun umr tilar ekan, tarixda yashab o'tgan hamda ko'plab badiiy asarlarning poetic obrazlaridan biri bo'lgan Luqmon obraziga murojaat qiladi.

⁴ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T., 1971. – B. 57. (Bundan keying misollar ham mazkur asardan olinadi. Baytlar joylashgan sahifa qavs ichida ko'rsatiladi).

Luqmon hakim bo'lganligi va ko'p umr ko'rganligi ma'lum. Talmeh san'ati shoirga ko'zda tutilgan fikrni batafsil aytish, holatni batafsil tasvirlash zaruratidan xalos etib, ko'zlangan samaraga o'sha fikr yoki ishora qilish bilanoq erishish imkonini beradi. Shoir ushbu hodisaga murojaat qilar ekan talmeh san'atini qo'llaydi.

Shoir xonni madh etar ekan qarshilantirish san'atlaridan ham unumli foydalanadi. Masalan:

Qayusī tuğardīn tūtār mīñ tanuq

Qayusī batardīn tapuğči anuq

Ba'zilar sharqdan ming-ming hadyalar tutmoqda,

Ba'zilar g'arbdan kelib xolis xizmatida turmoqda(61).

Ushbu baytdagi "tuğar" – kun chiqar joy, sharq; "batar" – kun botar joy, g'arb ma'nolarida kelgan. Shoir ushbu so'zlar orqali tajnis san'atini qo'llaydi. Shuningdek, ushbu baytda tavze' san'ati ham mavjud. Tavze' – baytda bir xil tovushlarni takrorlash. Tavze'da hosil bo'luvchi poetic samara shuki, bir necha bora takrorlanuvchi tovush (yoki tovushlar birligi) baytga o'ziga xos ohang, musiqiylik baxsh etadi⁵. Ushbu baytda esa "t" tovushi bayt bo'ylab bir necha bor takrorlanib, uning ohangiga sezilarli joziba baxsh etgan.

Shuningdek ushbu baytda takrir san'atining namunalari ham mavjud. Takrir – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, bir so'zni baytning turli o'rinlarida takrorlash. Ayrim manbalarda raddning bir ko'rinishidir. Misralarning birinchi so'zlari takrorlanib ham asarga alohida poetic zeb bag'ishlagan. Baytni o'qib, tahlil qilar ekanmiz, unda tarse' san'atining ham namunalarini kuzatamiz. Tarse' – baytning

⁵ Quronov D., Mamajonov Z., M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.,2010. – B. 211.

birinchi misrasidagi barcha so'zlarning keying misradagi muqobillariga qofiyadosh va vaznda teng bo'lishi⁶.

Qayusī tuğardīn tūtār mīñ tanuq

Qayusī batardīn tapuğči anuq (67).

Ushbu misralarda faqatginga uchinchi so'zlar bir-biri bilan qofiyalanmagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Qutadg'u bilig" asari turkiy tilde yozilgan eng qimmatli manbalardandir. Dostondagi qasidalar misolidagi ushbu tadqiqot natijasida doston leksikasining asosiy leksik qatlami o'z qatlam ekanligi ma'lum bo'ldi.

XI asr adabiy tilining nodir yodgorligi bo'lgan "Qutadg'u bilig" o'z davrining har tomonlama mukammal asaridir. Bu asar boshqa sohalar qatori XI asr adabiy tili haqida bahs yuritishga yetarli darajada material bera oladi. U til jihatidan to'la ma'noda qadimgi turkiy til zaminida yuzaga kelgan eski turkiy adabiy tilini aks ettirgan.

"Qutadg'u bilig"da bir necha qasidalar mavjud. Qasida janri tarixiy janrlardan hisoblanadi. Mazkur janr termin sifatida o'zga xalq adabiyotidan o'zlashgan bo'lsada, uning elementlari qadimgi turkiy bitiglarda, xalq og'zaki ijodi namunalarida mavjud bo'lgan.

⁶Quronov D., Mamajonov Z., M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.,2010. – B. 211.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk. I tom. – T., 357
2. Sodiqov Q. Eski turkiy bitiglar. – Toshkent, 2009.
3. To'xliyev B. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i va ayrim janrlar takomili. – T., 2004.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T., 1971.
5. Стеблева И.В. Поэтика «Кутадгу билиг» // Советская тюркология. - № 2. – М., 1974.
6. Quronov D., Mamajonov Z., M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.,2010.